


**2021- yil yanvar-iyun oylarida
Xizmatlar sohasining
rivojlanishi**

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rinni tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 735,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 404,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **121,1 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	5 735,0	121,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	234,3	116,5
Moliyaviy xizmatlar	986,1	124,8
Transport xizmatlari	1 348,8	122,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 216,7	116,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	219,8	103,8
Savdo xizmatlari	1 790,5	113,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	136,4	124,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	303,8	153,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	103,2	136,3
Ijara xizmatlari	161,1	142,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	115,2	130,3
Shaxsiy xizmatlar	118,7	131,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	54,6	111,1
Boshqa xizmatlar	162,5	127,4

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Ijara xizmatlari



Ko'chmas mulk
bilan bog'liq xizmatlar



Shaxsiy xizmatlar



Kompyuterlarni
ta'mirlash xizmatlari



Sog'liqni saqlash
sohasidagi xizmatlar



Me'morchilik
sohasidagi xizmatlar

Savdo xizmatlari

31,2 %

Transport xizmatlari

23,5 %

Moliyaviy xizmatlar

17,2 %

Ta'lim sohasidagi
xizmatlar

5,3 %

Aloqa va axborotlash -
tirish xizmatlari

4,1 %

Yashash va ovqatlanish
xizmatlari

3,8 %

Boshqa xizmatlar

2,8 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **31,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,0 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari umumiylaj hajmning **33,1 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,0 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmogda.

2021- yil yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish ta'lim (**53,6 %**), ijara (**42,4 %**), sog'liqni saqlash (**36,3 %**), shaxsiy xizmatlar (**31,4 %**), kompyuterlarni ta'mirlash (**30,3 %**), boshqa xizmatlar (**27,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**24,8 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**24,2 %**), va transport xizmatlarida (**22,2 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatish bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**3,8 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **151,8 %.**

Me'morchilik sohasidagi xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **28,1 %.**

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **31,2 %** ni tashkil etib, bu esa **1 790,5 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1 431,4 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **33,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

1 431,4

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

1 790,5

100,5

O'sish sur'ati, % da

113,0

2020- y.
yanvar-iyun

2021- y.
yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'l **72,6 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **77,4 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyun oylarida)

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **986,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **755,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **17,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **17,4 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **230,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **24,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **151,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **5,0 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,9 %** ini tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **92,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **5,6 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,4 %**.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **234,3** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **116,5 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:


2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turi hajmi **196,6** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiyligi hajmining **4,5 %** iga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **106,0 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **93,9 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.
yanvar-iyun**



**2021- y.
yanvar-iyun**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **303,8** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **5,3 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **153,6 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **192,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida pasayish **2,3 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

180,8
mlrd. so'm

2020- y.
yanvar-iyun

219,8
mlrd. so'm

2021- y.
yanvar-iyun

Xizmatlar hajmi

78,8 %

103,8 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **39,0** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyun

Yashash bo'yicha
xizmatlar

16,7 %

83,3 %

11,6 %

88,4%

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2020- y. yanvar-iyun

2021- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'jajida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,3 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **88,4 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar-iyun




2020- y.
yanvar-iyun

103,2
mlrd. so'm

1,8 %

136,3 %



Xizmatlar
hajmi


Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

O'sish
sur'ati

67,7
mlrd. so'm

1,6 %

83,8 %



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi
xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2021-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Buxoro tumanida **41,0** % ni tashkil etdi. Nisbatan past o'sish sur'ati Kogon shahrida – **17,9** % kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Buxoro viloyati *	5 735,0	121,1	103,6
Olot	207,7	115,3	100,2
Buxoro	324,0	116,7	102,0
Vobkent	261,8	114,9	100,1
G'ijduvon	737,8	117,2	101,7
Jondor	305,5	116,0	102,9
Kogon	190,0	123,4	101,0
Qorako'l	260,0	116,9	102,1
Qorovulbozor	101,4	112,0	88,9
Peshku	282,0	110,6	101,1
Romitan	309,6	115,3	101,6
Shofirkon	251,7	114,7	103,0
shaharlar:			
Buxoro sh.	2 297,5	129,5	105,3
Kogon sh.	206,0	118,2	100,1

* shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**



2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **40,1** % (2020- yil yanvar-iyun oylarida – **37,4** %)ni Buxoro shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Qorovulbozor tumanida – **1,8** % (2020- yil yanvar-iyun oylarida – **1,9** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 936,8
ming so'm



Hajmning o'sishi

691,7
ming so'mga

O'sish sur'ati

119,6 %

2021- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 936,8** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **119,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 245,1** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** da qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- iyul holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni**

**2020- yilning
mos davriga
nisbatan
o'sish sur'atlari**

**2020- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining o'sishi**

**2 941
birlikga**


63,6 %

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,6** %, sanoat **15,9** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **10,9** % ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,6** % ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,9** % ni, sanoat **15,2** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **10,6** % ni, qurilish **10,3** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(43,0 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **12,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,6 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 43,0

Boshqa turdag'i xizmatlar – 30,9

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 12,1

Tashish va saqlash – 8,6

Sog'liqni saqlash – 3,8

Axborot va aloqa – 1,6

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,6 %** ga teng bo'ldi.


2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 65,1 % ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 82,4 % ga to'g'ri keldi.

